

**DUNYONI KONSEPTUALLASHTIRISHDA
“KONSEPTUALLASHTIRISH,
KATEGORIYALASHTIRISH VA
IDEALLASHTIRISH” TUSHUNCHALARI**

Mamatursunova Umida Shuxratovna O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti Nemis tili nazariy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

**CONCEPTUALIZING THE WORLD: THE CONCEPTS
OF CONCEPTUALIZATION, CATEGORIZATION,
AND IDEALIZATION**

Mamatursunova Umida Shuxratovna teacher of the Department of Theoretical German Language at the Faculty of Roman-German Philology, Uzbekistan State University of World Languages

**КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИЯ МИРА: ПОНЯТИЯ
“КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИЯ, КАТЕГОРИЗАЦИЯ И
ИДЕАЛИЗАЦИЯ”**

Маматурсунова Умida Шухратовна преподаватель кафедры теоретических немецких языков факультета романо-германской филологии Узбекского государственного университета мировых языков



umidamamatursunova@gmail.com

[https://orcid.org/0009-0004-2172-2253.](https://orcid.org/0009-0004-2172-2253)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqollarni tadqiq qilishning lingvokognitiv aspektlari o‘rganiladi. Kognitiv metafora nazariyasi asosida, kundalik tilimiz metaforik tuzilishga ega. Metafora kundalik tilimizning mustahkam va ajralmas qismidir. Uning eng muhim funksiyasi - abstrakt tasavvurlarni konkret tajribalar yordamida ochib berish. Kognitiv metafora nazariyasi uchun shunday metaforalar qiziqarli bo‘ladiki, ular metaforik kontseptga mos keladi va shu orqali ularning sistemaliligi ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv metafora, kontseptual metafora, metaforik tushunchalar, kontrastiv tahlil.

Аннотация: В этой статье рассматриваются лингвокогнитивные аспекты исследования пословиц. На основе теории когнитивной метафоры повседневный язык обладает метафорической структурой. Метафора является прочной и неотъемлемой частью нашего повседневного языка. Ее главная функция заключается в том, чтобы раскрывать абстрактные представления с помощью конкретного опыта. Для теории когнитивной метафоры интерес представляют такие метафоры, которые соответствуют метафорическим концепциям, тем самым демонстрируя их системность.

Ключевые слова: когнитивная метафора, концептуальная метафора, метафорические понятия, контрастный анализ.

Abstract: This article examines the linguocognitive aspects of proverb research. Based on the theory of cognitive metaphor, everyday language possesses a metaphorical structure. Metaphor is a solid and integral part of our everyday language. Its main function is to reveal abstract representations through concrete experiences. For cognitive metaphor theory, metaphors that correspond to metaphorical concepts are of interest, thereby demonstrating their systematicity.

Key words: cognitive metaphor, conceptual metaphor, metaphorical concepts, contrastive analysis.

KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda olamning kontseptual manzarasi, milliy manzarasi, ilmiy manzarasi hamda lisoniy manzarasi kabi tushunchalar keng tarqaldi va tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda¹. Ammo ta'kidlash kerakki, sanab o'tilgan olam manzaralari ichida olamning kontseptual manzarasi ustunlik qiladi, chunki har qanday holatda muayyan bilimlar, ushbu bilimlar birligi konseptga aylanadi. Shundan so'ng u lisoniy libos kiygan holda olamning lisoniy manzarasini yaratadi, biroq olamning lisoniy manzarasi olamning kontseptual manzarasining bir qismini reprezentatsiya qiladi.² Bunday holat olamning lisoniy manzarasi kontseptual manzarasiga bo'y sunishini anglatadi. Shu tarzda olamning lisoniy manzarasi nom berish jarayonida yaratiladi, kontseptual va lisoniy olam manzarasini o'rganishga kognitiv yondashuvni amalga oshiradi.

Bilishning asosiy jarayonlaridan biri kontseptuallashtirish bo'lib, bu bilish natijalarini bilim birliklari – kontseptlar ko'rinishida ajratish, anglash va mustahkamlashdir. Ko'rindiki, inson muloqot jarayonida predmet va hodisalarga nom berishda va olamni bilish jarayonida kontseptuallashtirilgan bilimga tayanadi. Kontseptuallashtirish qabul qilinuvchi ma'lumotni tushunush, obyektlar va hodisalarning mental qurilishi, olam haqidagi bilimlarning kontseptlar holida shakllanishiga, masalan *uy, vaqt, makon, abadiylik, harakat* va boshqalar. Ushbu kontseptlarning asosiy qismi aniq so'zlarning ma'nolari bilan tilda o'rganiladi, bu esa olingan bilimlarning saqlanishi va avloddan-avlodga uzatilishini ta'minlaydi³.

A. Yuldashev⁴ kontseptuallashtirish bilish faoliyati sifatida inson tajribasi, bilim tuzilmalarining minimal mohiyatlari birliklarini aniqlashga va tasniflash jarayoni o'xhash birliklarni kategoriyalarga birlashtirishga qaratilgan bo'lib, maqsadiga ko'ra kontseptual xususiyatlarni aniqlaydi hamda olamning obyektlari, hodisalari, xususiyatlari haqidagi bilimlarni subyektiv to'plashdan iboratligini ta'kidlaydi. Shuningdek, kontseptuallashtirish – barcha obyektlar, hodisalar va ularning olam haqidagi umumiy bilim sifatidagi tavsiflari bo'lib, uning tahlil obyekti esa kontseptni ifodalovchi barcha til birliklari hisoblanadi.

Kontseptuallashtirishning "statik aspekti – bilim tizimi (kontseptual tizim, olam manzarasi, kontseptosfera, kognitiv maydon) va kategoriyalashtirishning statik aspekti – kategoriyalar tizimi sanaladi".

Kontseptuallashtirish bilish faoliyati sifatida inson tajribasi, bilim tuzilmalarining minimal mohiyatlari birliklarini aniqlashga va tasniflash jarayoni o'xhash birliklarni kategoriyalarga birlashtirishga qaratilgan bo'lib, maqsadiga ko'ra kontseptual xususiyatlarni aniqlaydi hamda olamning obyektlari, hodisalari, xususiyatlari haqidagi bilimlarni subyektiv to'plashdan iboratdir.

Kontseptuallashtirish – barcha obyektlar, hodisalar va ularning olam haqidagi umumiy bilim sifatidagi tavsiflari bo'lib, uning tahlil obyekti esa kontseptni ifodalovchi barcha til birliklari hisoblanadi⁵.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslikda kategoriya termini keng ma'noda til elementlarining ma'lum bir umumiy

¹ Yuldashev A.G.Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antropotsentrik mohiyati. Fil.fanlari doktori diss. Toshkent. 2022. – B. 38-39.. 248-b.

² Yuldashev A.G.Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antropotsentrik mohiyati. Fil.fanlari doktori diss. Toshkent. 2022. – B. 38-39.. 248-b.

³ Кубрякова Е.С., Демьянков В. З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический ф-т МГУ им. М.В. Ломоносова, 1997. – С. 93.

⁴ Yuldashev A.G.Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antropotsentrik mohiyati. Fil.fanlari doktori diss. Toshkent. 2022. – B. 40. 248-b.

⁵ Yuldashev A.G.Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antropotsentrik mohiyati. Fil.fanlari doktori diss. Toshkent. 2022. – B. 50. 248-b.

⁶ Yuldashev A.G.Tilda olam haqidagi bilimlar ikkilamchi interpretatsiyasining antropotsentrik mohiyati. Fil.fanlari doktori diss. Toshkent. 2022. – B. 55. 248-b.

o‘xhashligiga ko‘ra ajratilgan har qanday guruhini anglatadi⁷.

O‘tgan asrda struktural tilshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanishi kategoriya muammosini o‘rtaga tashladi va bu bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borildi. B.L.Uorf turli tizimli tillarda grammatik kategoriylar tamoyillarini tipologik aspektida tahlil qildi⁸.

M.A.Xalidey grammatik kategoriylar nazariyasini ishlab chiqdi⁹. V.V.Ioffe hind-yevropa tillarida jins kategoriyasining kelib chiqishi va rivojlanishi¹⁰ haqida ilmiy asoslarni keltirdi. D.Karimshoyev pomir tillarida jins kategoriyasining¹¹ qiyosiy tahlilini amalga oshirdi. J.B. Bo‘ronov tipologik kategoriyalarni o‘rgandi¹², A.T. Aksenov yangi hind tillarida jins kategoriyasini tadqiq qilgan bo‘lsa, L.A. Timpko jins kategoriysi ifodalanishining diaxronik jihatini o‘rgandi¹³, M.I.Rasulova leksik kategoriyalashtirish muammosi bo‘yicha tadqiqot olib bordi¹⁴.

O‘zbek tilshunosligida ham kategoriya muammosi ko‘tarilgan bo‘lib, xususan A. G‘ulomov o‘zbek tilida ko‘plikning ifodalanishi masalasini¹⁵, Sh.Shahobiddinova morfologik kategoriyalarning son kategoriysi, egalik kategoriysi, kelishik kategoriysi, qiyoslash kategoriysi, nisbat kategoriysi o‘zgalovchi kategoriysi turlarini ajratgan¹⁶.

Kategoriyalashtirish ham falsafiy kategoriya kabi aynan bilish jarayoni hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan kategoriyalashtirish, bir tomondan, borliqdagi obyekt va hodisalarning

nomlari haqidagi bilim va ushbu obyekt hamda hodisalarni aniq kategoriyalarga joylashtirish hamda ular nomlarini o‘zlashtirish jarayonidir¹⁷. Demak, kategoriyalashtirish – bu olamni o‘xhash obyektlar yoki hodisalar kategoriyalariga bo‘lish, ya’ni guruhlash, sinflashdir. Shu bilan birga, kognitiv jarayon sifatida kategoriyalashtirish obyekt yoki hodisaning muayyan kategoriya bilan, shu jumladan, uning nomi bilan belgilanishiga aloqador bo‘lgan bilimlar tizimidir. Shunga ko‘ra, tildan foydalangan holda ma’lumot almashish uni mavjud bo‘lgan bilimlar tizimi bilan taqqoslash, ma’lum bir obyekt va hodisalarni muayyan kategoriylar orqali aniqlashdan iboratdir.

Sh. Safarovning qayd etishicha, “Kategoriya – harakatdagi hodisa. Bu esa ma’no hodisasi kognitiv talqinining ham doimiy rivojda bo‘lishini taqozo etadi. Kognitiv semantikaning asosiy vazifasi ma’no tuzilishini aks ettiruvchi mental qoliqlar, shakkarning voqeiyligini, ularning imkoniyatlarini aniqlash, to‘g‘rirog‘i, ko‘rsata olishdir¹⁸”.

NATIJALAR

Kategoriylar tilning barcha darajalarida: fonetik, fonologik, morfologik, semantik, sintaktik va pragmatik darajalarda paydo bo‘ladi, bu esa klassik lingvistika sohalarini o‘z ichiga oladi.

“Bizning fikrimiz, sezgimiz, harakatimiz va nutqimiz uchun kategoriyalashdan asosiy narsa yo‘qdir (...). Har safar biz biror ifodani ishlab chiqayotganimizda yoki tushunyotganimizda (...), biz o‘nlab, agar yuzlab kategoriyalarni qo‘llayapmiz: nutq tovushlari, so‘zlar, iboralar va jumlalar

⁷ Языкознание. Большой энциклопедический словарь/ Гл. Ред. В.Н.Ярцева. – е изд. – Я41 – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С.215.

⁸ Уорф Б.Л. Грамматические категории // Принципы типологического анализа языков различного строяо. М.: Наука, 1972. – С. 44-60.

⁹ Halliday M.A.K. Categories of the theory of Grammar// Reading in Modern Linguistics. An anthology by B. Makmberg. Stockholm, 1972. Pp. 13-24.

¹⁰ Иоффе В.В. Происхождение и развитие рода в праиндоевропейском языке Автореф. дисс. ... канд.филол. наук. Ростов-на -Дону, 1973. 38 с.

¹¹ Каримшоев Д. Категория рода в памирских языках. (срав. анализ). Автореф. дисс. ...д-ра филол. Наук. М., 1973. 34 с.

¹² Буранов Ж. Типологические категории и сравнительное изучение языков. Автореф. дисс.д-ра филол. Наук. М., 1979. – 48 с.

¹³ Тимко Л.А. Род как историческая категория. – М.: Изд. МГУ. 1985. – 46 с.

¹⁴ Расулова М.И. Основы лексической категоризации в лингвистике. Издательство «Фан» АН Руз 2005. 268 с.

¹⁵ Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Тошкент, 1944. 56 б.

¹⁶ Шахобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. д-ридисс. автореф.-Тошкент, 2001. – 50 б.

¹⁷ Болдырев Н.Н. Категории как форма презентации знаний в языке //Концептуальное пространство языка: сб. Науч. Тр. Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2005. – С. 115.

¹⁸ Сафаров Ш. Семантика. 2013. -Б. 239.

kategoriyalari, shuningdek, kontseptual kategoriyalar¹⁹."

Noam Chomsky, generativ grammatikaning asoschisi, tilni idealizatsiya orqali tasvirlash kerakligini ta'kidlaydi²⁰. U, nutq so'zlovchilarining idealizatsiyalangan qobiliyatga ega ekanligini va bu qibiliyatning faoliyat omillari, masalan, charchoq yoki chalg'ishdan ajratilganligini ta'kidlaydi. Shunday qilib, grammatika idealizatsiyalangan til tizimini tasvirlaydi, haqiqiy til ishlatalish emas.

Kognitiv lingvistika, xususan, prototip nazariysi, til birliklarini kategoriyalashda idealizatsiyaning rolini ta'kidlaydi. Prototiplar — bu kategorianing idealizatsiyalangan vakillari bo'lib, boshqa elementlar ularga nisbatan o'lchanadi. Kam tipik elementlar prototip bilan oilaviy o'xshashlik orqali kategoriyalanadi, zarur va yetarli belgilar orqali emas.

Idealizatsiya lingvistika sohasida ko'pincha variatsiyaning e'tibordan chetda qolishiga olib keladi. Aslida, barcha tillarda fonologik, morfologik, leksik va sintaktik darajada variantlar mavjud. Sotsiolingvistlar, idealizatsiyaning til variatsiyasining haqiqatini inkor etishini ta'kidlaydilar.

Idealizatsiya kontseptual metafora nazariyasida muhim rol o'ynaydi. Kontseptual metaforalar — bu abstrakt tushunchalarni aniqroq va yaxshiroq tushuniladigan tushunchalar orqali tuzish va anglash uchun ishlatiladigan kognitiv modellardir. Misollar sifatida "Vaqt — pul" yoki "Munozara — urush" keltirilishi mumkin.

"**Vaqt — pul**" metaforasida pulning faqat ma'lum jihatlari vaqtga o'tkaziladi, masalan, vaqt cheklangan va uni "**sarmoya kiritish**" yoki "**isrof qilish**" mumkinligi. Pulning boshqa xususiyatlari, masalan, uni **hisoblash yoki saqlash**, vaqtga o'tkazilmaydi.

MUHOKAMA

Kontseptual metaforalardagi idealizatsiya bizga *abstrakt tushunchalarni tushunish va tuzish imkonini beradi*. Ushbu idealizatsiya bo'lmasa, ko'plab kundalik tushunchalar va fikrlash jarayonlari mumkin bo'lmas edi. Bir vaqtning o'zida idealizatsiya kontseptual metaforalarning maqsad sohasiga to'liq mos kelmasligiga olib keladi.

¹⁹ Lakoff G. Ko'rsatilgan asar. 1987. – B. 35.

Idealizatsiya metafora nazariyasida ham muhim tushuncha hisoblanadi. Manba sohasining xususiyatlarini maqsad sohasiga idealizatsiya va tanlab o'tkazish orqali, kontseptual metaforalar abstrakt tushunchalarni tushunishni ta'minlaydi. Kontseptual metaforalardagi idealizatsiya haqida ba'zi misollar:

1. "**Vaqt — pul**" metaforasi:

Ushbu metafora vaqt va pul o'rtaсидаги munosabatni idealizatsiya qiladi, bunda pulning faqat ma'lum jihatlari vaqtga o'tkaziladi. Vaqt cheklangan va qimmatli sifatida ko'rsatiladi, bu esa vaqt ni "*sarmoya kiritish*" yoki "*isrof qilish*" nuqtai nazaridan qarashga olib keladi. Bu idealizatsiya vaqtning murakkab tabiatini soddalashtiradi va uni monetar nuqtai nazariga qisqartiradi.

2. "**Munozara — urush**" metaforasi:

Ushbu metaforada urushning, masalan, *jang* va *g'alabalar* kabi jihatlari munozaraga o'tkaziladi. Bu, odamlarning munozarada qanday harakat qilishini idealizatsiya qiladi, bu esa konflikt va raqobatga e'tibor qaratadi va boshqa, hamkorlik yoki dialogik jihatlarni e'tibordan chetda qoldiradi.

3. "**Hayot — sayohat**" metaforasi: Ushbu metafora hayotni *aniq, maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida idealizatsiya* qiladi, bunda rivojlanish va taraqqiyot muhim ahamiyatga ega. Hayotning sayohat sifatida ko'rishi ko'plab murakkab va tartibsiz jihatlarni, masalan, kutilmagan o'zgarishlar yoki burilishlarni e'tibordan chetda qoldiradi.

4. "**Miya — kompyuter**" metaforasi:

Ushbu metafora *inson miyasining ishlashini kompyuter bilan taqqoslaydi*, bu esa idealizatsiya qiladi. Ushbu nuqtai nazar mantiqiy jarayonlar va ma'lumotlarni qayta ishlashga e'tibor qaratadi, shu bilan birga fikrlashning hissiy va intuitiv jihatlarini e'tibordan chetda qoldiradi.

XULOSA

Ushbu misollar idealizatsiyaning kontseptual metaforalarda qanday ishlashini va murakkab tushunchalarni soddalashtirishga yordam berishini ko'rsatadi, ammo buni amalga oshirishda ba'zi jihatlarni e'tibordan chetda qoldirishi mumkin.

Kategorizatsiya — bu obyektlar, tushunchalar yoki tajribalarni guruhlarga yoki klasslarga

²⁰ Jürgen D. Rezeption und Kritik der Sprachtheorie Noam Chomskys in der Bundesrepublik Deutschland. Teil 1. 1981. – S. 141.

joylashtirish jarayoni. Lingvistika sohasida bu odamlarning tilni qanday ishlatishini va ma'nolarni qanday yetkazishini tushunish uchun muhimdir. Kategorizatsiya ko'pincha prototiplar orqali amalga oshiriladi, bu prototiplar esa kategoriyaning ideal vakillari sifatida xizmat qiladi. Ushbu prototiplar mukammal bo'lmasligi mumkin, lekin yangi ma'lumotlarni tezda joylashtirish imkonini beruvchi soddalashtirilgan ko'rinishni taqdim etadi.

Konseptualizatsiya metaforik tasvirlar orqali amalga oshirilishi mumkin, bu esa murakkab tushunchalarni aniqroq tasvirlar yoki taqqoslashlar orqali tushunishga yordam beradi. Idealizatsiya murakkablikni kamaytirishga va tushunchaning mohiyatini ta'kidlashga qaratilgan. Kategorizatsiya esa ma'lumotlarni tasniflashga qaratilgan, kontseptualizatsiya esa abstrakt g'oyalarni tuzishga va tushunishga yordam beradi. Idealizatsiya haqiqatdan chetga chiqishi mumkin, Kategorizatsiya va Konzeptualizatsiya esa haqiqatni tushunarli va boshqariladigan birliklarga ajratishga qaratilgan. Ushbu tushunchalar bir-biri bilan bog'liq, ammo har biri til va kognitsiyani tushunishda o'ziga xos rolga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Болдырев Н.Н. Категория как форма презентации знаний. Вжайке //концептуальное пространство джазика: СБ. Науч. Тр. Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2005. – С. 115.2. Буранов З.

Типологические категории и сравнительное изучение жазиков. Автореф. дисс.д-ра филол. Наук.М., 1979. – 48 с.

3. Halliday M.A.K. Categories of the theory of Grammar// Reading in Modern Linguistics. An anthology by B. Makmberg. Stockholm, 1972. Pp. 13-24.
4. Иоффе В.В. Проишествование и развитие рода в праиндоевропейском жазике. Автореф. дисс. ... канд.флол. наук. Ростов-на -Дону, 1973. 38 с.
5. Каримшоев Д. Категория рода в памирских жазиках. (срав. анализ). Автореф. дисс. ...д-ра филол. Наук.М., 1973. 34 с.
6. Кубрякова Е.С., Демжанков В. З., Панкрас Жу.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Филологический ф-т МГУ им. М.В. Ломоносова,1997. – S. 93.
7. Rasulova M.I. Osnovy leksicheskoy kategorizacii v lingvistike. Izdatel'stvo "Fan" AN Ruz 2005. 268 s.
8. Тимко Л.А. Род как историческая категория. – М.: Изд. МГУ.1985. – 46 с.
9. Уорф Б.Л. Грамматические категории // Принципы типологического анализа жазиков различного строжажу. М.: Наука,1972. – S. 44-60.
10. Shahobiddinova Sh. Umumiylilik va xususiylik dialektikasi hamda uning o'zbek tili morfologijasida aks etishi: Filol. fan. d-ridiss. avtoref.-Toshkent, 2001. – 50 b.

